

HOZIRGI DAVRDA DIALOG VA DIALOGIK MUNOSABATLARNING ONTOLOGIK JIHATLARI

Boyyigitov Ziyodulla Abdukarim o'g'li

O'zMU Falsafa kafedrasi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davrda dialog va dialogik munosabatlarning ontologik jihatlari tahlil qilinadi. Dialogning insoniy munosabat shakli sifatida falsafiy asoslari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi muloqotda tutgan o'rni hamda zamonaviy ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zaro tushunish, ochiqlik va ma'no anglash kabi dialogik munosabatlarning asosiy komponentlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: dialog, dialogik munosabatlar, ontologiya, muloqot, shaxs, o'zaro tushunish, falsafa.

Аннотация. В данной статье анализируются онтологические аспекты диалога и диалогических отношений в современную эпоху. Рассматриваются философские основы диалога как формы человеческих взаимоотношений, его роль в коммуникации между личностью и обществом, а также значение в современной социальной жизни. Кроме того, раскрываются основные компоненты диалогических отношений, такие как взаимопонимание, открытость и осмысление смысла.

Ключевые слова: диалог, диалогические отношения, онтология, коммуникация, личность, взаимопонимание, философия.

Abstract. This article analyzes the ontological aspects of dialogue and dialogic relations in the contemporary era. It examines the philosophical foundations of dialogue as a form of human relationship, its role in communication between the individual and society, and its significance in modern social life. The article also highlights key components of dialogic relations such as mutual understanding, openness, and the interpretation of meaning.

Keywords: dialogue, dialogic relations, ontology, communication, individual, mutual understanding, philosophy.

Kirish. So'nggi yillarda jahon ilmiy tadqiqot markazlari hamda institutlarida dialog, dialogistika va dialogizatsiya vositasida konsensusga erishishning dinlar, millatlar, davlatlararo tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ochib berishga yo'nalgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, 1945-yilda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyoda tinchlikni saqlash, xalq farovonligini ta'minlashga yo'nalgan birinchi halqaro hamjamiyat bo'lib, bu dialog zaruratining isbotidir. Aynan ushbu harakatlarning ijrosi 2008-yilni Yevropa Ittifoqida "Halqaro madaniyat dialogi yili" deb e'lon qilinganligida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda

halqaro tashkilotlar dialogini takomillashtirishga har qachongidan ham ko'proq zarurat sezilmoqda.⁵ Zamonaviy jamiyatning jadallik bilan axborotlashuvi, madaniy jihatdan ko'p qirraliligi va ijtimoiy murakkabligi insonlar o'rtasidagi muloqotga bo'lgan ehtiyojni yana-da kuchaytirdi. Ayniqsa, bugungi global muhitda insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunish, to'g'ri tinglash va ma'noli muloqot olib borish jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Shunday muloqot shakli sifatida dialogik munosabatlar faqat ijtimoiy, psixologik yoki lingvistik hodisa emas, balki falsafiy — ontologik asosga egadir. Chunki dialog bu – inson mavjudligining ifodasidir.

Ushbu tezisda dialogik munosabatlarning zamonaviy sharoitdagi ahamiyati, mohiyati va ularning ontologik ildizlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hozirgi davrda ushbu munosabatlarning buzilishi yoki soddalashtirilishi qanday falsafiy muammolarni yuzaga keltirayotgani o'rganiladi.

Dastlab, ontologiya va dialog tushunchalarining bir – biriga bog'liqligi masalasiga to'xtalsak, ontologiya bu — mavjudlik haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, har qanday narsa yoki hodisaning “borligi”ni tahlil qiladi. Dialog esa — ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida o'zaro anglashuvga, fikr almashuvga asoslangan muloqot shaklidir. Dialog oddiy kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rilishi mumkin, biroq falsafiy yondashuvda dialog bu — mavjudlikning ijtimoiy va shaxsiy shaklidir. Inson o'zini faqat boshqa inson bilan muloqotdagina anglay oladi.

M.M.Baxtinning fikricha, inson “monologik mavjudlik” orqali o'z mohiyatini to'liq anglay olmaydi. Haqiqat va shaxsiyat faqatgina dialogda ochiladi. Shunday ekan, dialog – bu faqat fikr almashuvi emas, balki mavjudlikning chuqurroq darajasi — “birgalikdagi mavjudlik” dir.⁶

Dialogik munosabatlarning asosiy falsafiy xususiyatlari

Dialogik munosabatlar quyidagi ontologik xususiyatlarga ega:

a) Sub'ekt-sub'ekt munosabati

Dialogda har ikki tomon ham faol sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Bu monologdan farqli o'laroq, har bir ishtirokchining fikri muhim ekanini bildiradi. Bu o'zaro tenglik, hurmat va tan olishga asoslanadi.

b) Erkinlik va ochiqlik

Dialog faqat erkin sharoitda, majburlovsiz, ochiq fikr almashuvi asosida mavjud bo'ladi. Dialogning asosiy sharti — ichki erkinlikdir.

c) Ma'noni birgalikda yaratish

Dialog har bir ishtirokchining ma'lum darajadagi hodisani tushunmasligidan boshlanadi va suhbat jarayonida ma'no birgalikda yaratiladi.⁷ Shuning uchun dialogni biz – haqiqatga birgalikda intilish sifatida ko'ramiz.

⁵ Mahkamov U. “Zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda dialog tamoyillarining falsafiy tahlili” 2023, №1

⁶ Baxtin M.M. “Estetika slovesnogo tvorchestva” Moskva: Iskustvo, 1979

⁷ Gadamer H.-G “Truth and Method” – London: Continuum, 2004.

d) Eshitish madaniyati

Haqiqiy dialogda nafaqat fikr bildirish, balki tinglash ham muhim. Falsafiy jihatdan “eshitish” bu — boshqani tan olish, uning mavjudligini qabul qilish degani.

Hozirgi davrda dialogik munosabatlar holati

Bugungi axborot asrida muloqot vositalari ko‘paygan bo‘lsa-da, haqiqatda dialogik madaniyat zaiflashib bormoqda. Sabr, eshitish, chuqur anglash kabi sifatlar kamaymoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ko‘pincha monologik uslub – ya‘ni bir tomonlama bayonot va “eshitmaslik” holati ustunlik qilmoqda. Jamiyatda turli qarashlar, e‘tiqodlar va dunyoqarashlarning mavjudligi tabiiy. Ammo ularning o‘zaro to‘qnashuvi dialog orqali hal etilmasa, bu ijtimoiy qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda falsafiy asoslangan dialogik madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Dialogik munosabatlarning buzilishi — ontologik muammo sifatida

Dialogning so‘nishi yoki yuzakilashuvi — insoniylikning susayishi deganidir. Agar insonlar bir-birini tinglamasa, anglamasa va faqat o‘z fikrini ustun qo‘ysa, bu individualizm va begonalashuvga olib keladi. Ontologik jihatdan bunday holat — mavjudlikning parchalanishi, ya‘ni “birgalikda bor bo‘lish” tamoyilining yemirilishi demakdir. Shu bois dialog nafaqat axloqiy, balki mavjudlikning ontologik talabi hamdir. Inson o‘z mohiyatini, o‘zligini, hatto haqiqatni faqat boshqa inson bilan muloqot orqali anglaydi. Bu jarayon doimiy harakat, izlanish, o‘zgarishdir.

Dialogik munosabatlar — insoniyat madaniyati, falsafasi va ma‘naviyatining asosi bo‘lib, u inson mavjudligining chuqur shaklidir. Bugungi jamiyatda turli ijtimoiy va madaniy muammolarning yechimi — aynan chinakam dialogda mujassam. Dialog bu — erkinlik, tushunish, tan olish va birgalikda haqiqatga intilishdir. Uni rivojlantirish, unga zaruriy sharoit yaratish har bir jamiyat a‘zosi va mutafakkirining dolzarb vazifasidir.⁸ Dialog orqali nafaqat fikr, balki mavjudlikning o‘zi boyiydi va chuqurlashadi.

Dialog va monolog – bu ikkita asosiy kommunikativ shakl bo‘lib, ular muloqotning turli jihatlariga asoslanadi. Dialog – o‘zaro fikr almashish jarayoni bo‘lsa, monolog – bir kishining uzluksiz nutqidir. Dialog (yunoncha dialogos – “ikki yoki undan ortiq shaxsning so‘zlashuvi”) – ikki yoki undan ortiq subyektning o‘zaro fikr almashish jarayoni. Dialogda tomonlar bir-biriga javob qaytaradi, savollar beradi va tushunishga harakat qiladi. Monolog (yunoncha monologos – “yakka nutq”) – bitta shaxsning uzluksiz nutqidir. Unda boshqa tomonlarning bevosita ishtiroki yo‘q, fikr almashish emas, balki axborot berish yoki fikr ifodalash jarayoni ustun turadi. Dialog va monologning asosiy farqlarini biz birgina kunlik suhbatlar jarayonida ko‘rishimiz mumkin.

Dialog:

⁸ Shermuxammedova N. Dialogik muloqot va shaxs shakllanishida uning ahamiyati// “Yosh olim” ilmiy jurnali, 2022, №4

A: Bugun havo juda issiq bo'lib ketdi, shunday emasmi?

B: Ha, juda issiq. Kecha yomg'ir yog'ganida havo ancha salqin edi.

Bu yerda tomonlar bir-biriga javob qaytarib, muloqotni davom ettirmoqda.

Monolog:

“Bugun havo juda issiq. Kecha esa salqin edi. Men jaziramani yoqtirmayman, lekin kechqurun havo yaxshilanishi mumkin.” Bu yerda faqat bitta shaxs o'z fikrini izohlab bermoqda, boshqa tomonlarning esa ishtiroki yo'q.

Dialog nafaqat oddiy suhbat shakli, balki haqiqatni anglash, dunyoqarashlarni uyg'unlashtirish va insoniy munosabatlarni shakllantirish vositasidir. Falsafada dialogning uch asosiy turi mavjud:

Germenevtik dialog – tushunish va talqin jarayoni sifatida dialog. Germenevtika – bu tushunish va talqin qilish san'ati. Germenevtik dialog esa insonlar yoki matn o'rtasidagi muloqotda ma'no ochib berish jarayonidir. Bunda dialogning asosiy maqsadi – boshqa inson yoki matnning haqiqiy ma'nosiga yetib borish.

Intersubektiv dialog – subyektlararo muloqot va tushunish jarayoni. Intersubektivlik – bu insonlar orasidagi tushunish jarayoni bo'lib, dialog orqali subyektlarning bir-birini anglashga harakat qilishini bildiradi. Bu turdagi dialogda hech kim mutlaq haqiqat egasi emas, aksincha, haqiqat muhokama jarayonida shakllanadi.

Ekzistensial dialog – insonning mavjudligi va hayotiy tajribalariga asoslangan dialog. Ekzistensial dialog – insonning mavjudligi, erkinligi va ichki kechinmalari haqida olib boriladigan chuqur muloqot shaklidir. Bu dialog inson hayotining ma'nosi, o'lim, sevgi, yolg'izlik, tanlov va erkinlik kabi fundamental mavzularni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. — Moskva: Iskusstvo, 1979.
2. Gadamer H.-G. Truth and Method. — London: Continuum, 2004.
3. Jaspers K. Inson va mavjudlik. — Toshkent: G'. G'ulom nomidagi NMIU, 2007.
4. Shermuxammedova N. Dialogik muloqot va shaxs shakllanishida uning ahamiyati // “Yosh olim” ilmiy jurnali, 2022, №4
5. Karimov A. Dialogik tafakkur va zamonaviy jamiyat. — “Falsafa va hayot”, 2021, №2.
6. Mahkamov U. Zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda dialog tamoyillarining falsafiy tahlili // “Falsafa va jamiyat”, 2023, №1.